



"ILM - FAN VA INNOVATSION YUTUQLARNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI"

**Respublika ilmiy-amaliy
konferensiyasi**

"SCIENCES" OOO

**“Ilm - fan va innovatsion yutuqlarni
rivojlantirishning dolzarb muammolari”
Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi № 9.**

**«Актуальные проблемы развития науки и
инновационные достижения»
Республиканская научно-практическая
конференция № 9.**

**Republican scientific-practical conference "Actual
problems of development of science and
innovative achievements" № 9.**

Toshkent-2022



“Ilm - fan va innovatsion yutuqlarni rivojlantirishning dolzarb muammolari”

УҮК 001 (062)

КБК 72я43

“Ilm - fan va innovatsion yutuqlarni rivojlantirishning dolzarb muammolari” [Toshkent; 2022]

“Ilm - fan va innovatsion yutuqlarni rivojlantirishning dolzarb muammolari” mavzusidagi respublika 9-son ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to’plami, 20 Noyabr 2022 yil. – Toshkent: «Sciences» MChJ, 2022.

Ushbu Respublika-ilmiy masofaviy konferensiya «Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» va «Raqamli O‘zbekiston - 2030» davlat dasturlarida ko’zda tutilgan vazifa – ilmiy izlanish yutuqlarini amaliyotga joriy etish bilan fan sohalarini rivojlantirishga bag’ishlab o’tkazilgan.

Ushbu Respublika-ilmiy konferensiyasida ta’lim sohasida faoliyat olib borayotgan professor-o’qituvchi va talaba-o’quvchilar tomonidan tayyorlangan ilmiy tezislar kiritilgan bo’lib, unda ta’lim tizimida ilg’or zamonaviy yutuqlar, natijalar, muammolar, yechimini kutayotgan vazifalar va ilm-fan taraqqiyotining istiqboldagi rejalarini tahlil qilingan.

TASHKILIY QO‘MITA

- S.Beknazarova - texnika fanlari doktori (Dsc), dotsent, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalar universiteti, Audiovisual texnologiyalari kafedrasi professori, Tashkiliy qo‘mita a’zosi;
- A.Maxmudova - falsafa fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat tibbiyot instituti ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrasi mudiri, Tashkiliy qo‘mita a’zosi;
- Sh.Aktamov – SCIENCES MCHJ rahbari, Beruniy nomidagi Davlat stipendiyasi sohibi, Toshkent axborot texnologiyalar universiteti magistranti, Tashkiliy qo‘mita a’zosi;
- D.Gafurova - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktor PhD, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalar universiteti, menejment va marketing kafedrasi dosenti;
- G.Nazarova - texnika fanlari nomzodi (Phd), dotsent, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalar universiteti, Pochta aloqasi texnologiyalari kafedrasi, Tashkiliy qo‘mita a’zosi;
- Q.Xalikov - tibbiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent, Samarkand Davlat tibbiyot universiteti biologik kimyo kafedrasi mudiri, tashkiliy qo‘mita a’zosi;
- I.Soliyev - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent, Namangan davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasi mudiri, Tashkiliy qo‘mita a’zosi;
- F.Nishonov – (Phd) dotsent, Namangan muhandislik-qurilish institute, Muhandislik kommunikatsiyalari qurilish va montaj kafedrasi mudiri;
- L.Abduraximova - tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Toshkent tibbiyot akademiyasi, simulyatsion o‘qitish kafedrasi dotsenti, Tashkiliy qo‘mita a’zosi;



Mundarija\Содержание\Content:

1. Umarova Shaxlo	Taraqqiy etayotgan jamiyat hayotida axloqning tutgan o`rni	6
2. Ergasheva Odina	Maktabgacha yoshadagi bolalarga horijiy tilni orgatishni takomillashtirish	10
3. Ergasheva Odina	Maktabgacha talimda aktdan foydalanish foydali va zararli taraflari	13
4. Abduraxmanova Nodiraxon	Хукукий маданият ва демократия: ижтимоий фалсафий ёндашувлар ва концепциялар ...	16
5. M Ro'ziyeva	Воҳа лўлилари тақвимий маросимларининг этномаданиятда тутган ўрни.....	19
6. Nosirova Marg'uba	Хотин – қизлар миграция траекторияси ва жиноятчилик	22
7. Komilova Mexrinur	Применение нечеткой логики в автономного адаптивного управления	27
8. Aslanova Xolida, Eshboyeva Surayyo, Rashidova Laylo	Apoftoz (tartibli o‘lim) va Nekroz (tartibsiz o‘lim) jarayonini kuzatish va tirik organizmlarga ta’sirini o‘rganish	29
9. I.B.Mattiev	Талабаларда саломатликни таъминлашда жисмоний тарбиянинг ўрни	32
10. I.B.Mattiev	Талабаларда жисмоний тарбия ва соғломлаштиришга бўлган дунёқарааш омиллари	35
11. Rustamov Abror	Ўқув машғулотларини бошқариш ва лойиҳалаш механизmlари	38
12. Rustamov Abror	Ўқув машғулотларини ташкил этиш мазмuni ҳамда уларга қўйиладиган талаблар	40
13. Alimova Vazirakhon, Rano Kasimova	Chulponning "kecha va kunduz " asarining inglizcha tarjimasida badiiyatning saqlanishi	43
14. Nosirova Marg'uba	Миграция тушунчалари ва асосий илмий ёндашувлар таснифи.....	46
15. Abdanbekova Nilufar	Chet tilini o'qitishda til va nutqning ahamiyati.....	54
16. Aliyeva Umidaxon	Tredlifting — 3d mezoiplarining o‘ziga xosligi	58

intilayotgan va uni yanada yuqori bosqichga olib chiqish, AKT integratsiyasini yanada samarali, intensiv va samaraliroq qilish, yangi g‘oyalar, hamkorlar, vositalar va maqsadlar bilan boyitish va mustahkamlash istagida bo‘lgan direktorlar uchun ham foydali bo‘ladi.

Bizning xalq mintalitedining umumiy fikrida AKT faqat zararli jihat sifatida talqin qilinadi. Ammo ushbu vositalardan to’g’ri foydalanish yoshlarning axborot texnologiyalari borasidagi umumiy malakasi va kompetensiyasini rivojlantirishga yordam beradi. Kiybersport borasida mamlakat terma jamosaining yoshlari erishayotgan natijalar va ushbu tizimda hukumatning alohida qarorlarini ham takidlash maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR

- 1.** O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2020 yil 22 dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to’g’risida”gi 802-sonli qarori.
- 2.** “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim muassasasining davlat o’quv dasturi. T: 2018 y. 21-bet.
- 3.** Sayidaxmedov N. Pedagogik amaliyotga yangi texnologiyalarni qo’llash namunalari .-T.:RTM,2010.
- 4.** G’ulomova M.X Yangi innovatsion texnologiya yordamida ta’lim samaradorligini oshirish usullari // Innovatsiya o’quv jarayonida (tezislar to’plami).-T.:2009.
- 5.** www.OpenEmis.uz
- 6.** www.id.gov.uz
- 7.** www.bbit.uz
- 8.** www.mdo.uz

ХУҚУҚИЙ МАДАНИЯТ ВА ДЕМОКРАТИЯ: ИЖТИМОИЙ ФАЛСАФИЙ ЁНДАШУВЛАР ВА КОНЦЕПЦИЯЛАР.

Абдурахманова Нодирахон Хуснутдиновна ТТА ижтимоий фанлар кафедраси

Борлиқдаги барча нарсалар ўз тартиблари ва қонунларига эга. Ш.Л.Монтескьенинг фикрига кўра, инсон илоҳий қонунларга ва ўзи яратган қонунларга мувофиқ яшайди, биринчиси барқарор, ўзгармас, иккинчиси эса бекарор, ўзгарувчан⁵. Одам тез унутувчи мавжудот, шунинг учун Яратган илоҳий тартиблар, қонунлар борлигини, файласуфлар ва қонуншунослар эса унинг эсига фуқаролик бурчи, ижтимоий вазифалари борлигини эсига

⁵ (Каранг: Монтескье Ш.Л. О духе законов. - Москва : Изд.АСТ, 2022. С. 9-10).

солиб туради⁶. Одам яратадиган тартиблар, қонунларга мувофиқ жамиятда қандай бошқариш демократиями, аристократиями ёки монархиями мавжудлигини билса бўлади. Монтескье фикрига кўра, аристокартик ёки монархистик бошқаришда ҳукмдор ўзини қонунлар, тартиблардан юқори қўяди, демократик бошқаришда эса барча, шу жумладан, ҳукмдор, давлат бошлиғи ҳам, уларга бўйсунади. Бундан ташқари, демократик бошқаришда эзгулик, эзгу амаллар ҳам устуворлик қиласи, барча институтлар, қисмлар бир бирларидан эзгу ишларни амалга оширишда ўзишга ҳаракат қиласидар. Агар ҳуқуқий маданият қонунлар, тартиблар устуворлигини эътироф этишга, улар орқали эзгуликни қарор топтиришга хизмат қилса, демак, у демократик бошқариш механизмидир. Мазкур пастулат ҳуқуқий маданият ва демократия тўғрисидаги замонавий қарашлардан келиб чиқади; уларга бир бирига диалектик боғлиқ воқелик сифатида уйғун қараш шаклланган. Шунинг учун ҳуқуқий маданият билан демократия бир бирини тақозо этади, ҳуқуқий маданият демократияга хизмат қилганидек, иккинчиси ҳам биринчисига хизмат қиласи; улар диалектик уйғунликда ривожланиш хусусиятига эга. Мазкур пастулатни деярли барча фалсафий ёндашувлар ва концепциялар, улар ўртасида маълум бир ғоявий фарқлар ва гносеологик мақсадлар бўлишига қарамай, тасдиқлайди. Улар ҳақида зарур қарашларга эга бўлиш муаммонинг қанчалик илмий муҳимлигини ва обьект доирасининг қанчалик кенглигини кўрсатади. Бундан ташқари, ҳуқуқий маданият муаммоларига бағишланган адабиётларда унинг демократия билан боғлиқ жиҳатлари негадир тилга олинмайди, улар ўртасидаги диалектик боғлиқлик фалсафий таҳлил қилинмайди. Бу эса ҳуқуқий маданиятни фалсафий тадқиқ этиш ҳали етарли амалга оширилмаганини билдиради.

Ҳуқуқий маданият ва демократия уйғунлиги мавзусини тадқиқ этганда, бизнинг фикримизча, ҳуқуқ феноменига урғу бериш матиқан тўғри бўлади. Демократияга оид фалсафий ёндашувлар ва концепциялардаги ҳуқукнинг ўрни, инсон эрки, озодлик, меҳнат ҳуқуки, яшаш ҳуқуки, сайлаш ва сайданиш, давлат ишларини олиб боришда иштироки ҳуқуки, хурфикрлик, ижод эркинлиги кабиларга эътибор қаратилади. Айнан улар ҳуқуқ фалсафасининг предмети ҳисобланади ва бизни ижтимоий-сиёсий таълимотлар томонга оғиб кетишдан асрайди. Бизга демократик ёндашувлар ва концепциялардаги ижтимоий-сиёсий воқеликлар эмас, улардаги инсон ҳуқуки ва эркинликларига оид қарашлар зарур. Улар негизидаги фалсафий моҳият, инсоннинг давлат билан алоқалари, бошқариш тизими билан инсон эрки масалалари тадқиқотимиз мақсадига мувофиқдир. Мавжуд илмий сиёсий ва фалсафий адабиётларни ўрганишдан келиб чиқиб демократияга оид ёндашувлар ва концепцияларни қўйидагиларга гурухлашимиз мумкин:

⁶ (Ўша жойда).

1. Афина демократияси.
2. Мумтоз либерал демократия.
3. Замонавий либерал демократия ёки неолиберализм концепцияси.
4. Элитаризм ёки элитар демократия.
5. Сиёсий плюрализм концепцияси.
6. Конституционализм
7. Полиархия концепцияси.
8. Вакиллик демократияси.
9. Иқтисодий демократия.
- 10.Хуқуқий демократизм.

Мазкур ёндашувлар ва концепцияларни яна давом эттириш мумкин, бироқ ушбу йўналишларнинг ўзи мавзумиздаги мақсадни очиб беришга етарли материаллар бера олади.

1. Демократия тўғрисида гап кетганида, тадқиқотчилар аввало Афина тажрибасини тилга олишади, уни мумтоз мисол, инсоният тарихидаги ибратли сиёсий ва хуқуқий тажриба сифатида эслашади. Айнан Афина демократияси Платон ва Аристотелнинг сиёсий-фалсафий қарашларига таъсир этган, улар асарларидағи фикрлар Афина демократияси (эр авв. 594- 321 йиллар)ни англашга, ундаги тажрибалар ҳақида маълум бир хulosалар чиқаришга имкон беради. Манбаларда айтилишича, Афина демократиясига архонт Солон асос соглан. Халқ йиғини сайлаган стратеглар Афина давлати учун зарур бўлган қонунларни қабул қилган. Қонунларни бажариш ҳамма учун баб-баровар тенг тааллуқли эди. Қуллар, аёллар ва муҳожирларнинг хуқуқлари чекланган бўлса -да , умумий қонунларга риоя этиш уларга ҳам мажбурий эди. Маълумки, Қадимги Афинада аввал шоҳлик давлат тизими мавжуд эди, давлат бошқариш хуқуқи ушбу қатлам қўлида эди. Шоҳлиқдан архонтатга ўтиш осон кечмаган, албатта⁷ Дракон қонунлари илк ёзма нормалар бўлган. Уларда белгиланган жазолар бешавқатлиги билан ажralиб туради. Оддий кишилар, демос кун кўриш учун, Периклнинг хабар бершича, ҳатто “болаларини ҳам сотишган” Бу қонун томонидан қўллаб- қувватланган⁸. Солон даврида эса қонунга итоат этишнинг демократик даври бошланган. Унинг фикрича, давлат ҳаётини бошқариш, жамиятдаги осойишталик қонунлар туфайлидир, қонунлар йўқ жойда бетартиблиқ, бошбошдоқлик, хаос юзага келади. Демосни “қарздорлик балоси”дан халос қилгани учун Солонни улуғлашган. Кишилар карз тўлови сифатида соғлиги, танасини қўйишган, давлат бу тартиб тарафдори бўлган. Солон бу тартибни бекор қилиб, “қарздорлик балоси”ни бекор килади. Демосга эркинлик берилади. Энг муҳими шундаки, Солон шахснинг сиёсий ва

⁷ (Қаранг: Безускул В. Афинская демократия. Общий очерк. -Харьков: Изд. “Союз”, 1920. С.15- 16).

⁸ (Ўша асар. С. 19- 20).

иқтисодий ҳуқуқини қўллаб -қувватлади, у ҳуқуқлари паймол этилган кишиларга эрк берди, ватандан чиқиб кетишга мажбур бўлганларни орқага қайтарди. Айрим шахсларнинг ҳаддан ташқари катта ерга эга бўлишини, ҳаддан зиёд бойлик тўплашга интилишини чегаралади. Кишиларнинг ўз ҳуқуқларни ҳимоя қилиши учун суд тизимини жорий этди. Унинг давлат бошқариши демократик хусусиятга эга бўлганини Аристотель алоҳида қайд этади⁹ Файласуф фикрига кўра, Солон фуқароларнинг раҳбарларни сайлаш ҳуқуқини ўрнатган, сайланган раҳбарлар эса иш кўзини биладиган кишилар билан маслаҳатлашиб турган, натижада демократик бошқариш сайлаш ҳуқуқидан униб чиқкан¹⁰ Баъзи тадқиқотчилар Афина демократиясини Суқрот ҳаёти ва ижоди билан боғлайдилар ва ўша даврдаги инсон ҳуқукининг идеал тасвирини яратадилар. Суқротнинг фалсафий-ахлоқий позициясини шахс ҳуқукининг идеал кўриниши сифатида қараш позитив ёндашув, бироқ унингш қатл этилишида мазкур идеални асослашга хожат қолмайди. Бегуноҳ кишининг афиналик демократлар томонидан суд ва ўлимга ҳукм қилиниши демократия тамойилларига сиғмайди.¹¹ Демак, демократия ва инсон ҳуқуқлари ва эркинликларини таъминлашнинг идеал шакли йўқ, инсон характери, когнитив тажрибалари, эҳтирослари билан боғлиқ ҳар қандай ҳаёт тарзида ғайрихуқуқий ҳодисалар -учраши мумкин. Аммо ушбу ғайрихуқуқий ҳодисалар нормага, турмуш тарзи ва одатга айланмаслиги лозим.

Воҳа лўлилари тақвимий маросимларининг этномаданиятда

тутган ўрни

М.Рўзиева

катта ўқитувчи,

Термиз давлат университети.

Бадиий сўз санъатининг энг қадимги ва узоқ тарихга эга бўлган соҳаси фольклордир.Халқ бадиий фаолиятининг таркибий қисми бўлмиш фольклор халқ санъатининг бошқа турларидан (мусиқа, театр, рақс, тасвирий ва амалий санъат ҳамда бошқалардан оғзаки сўз санъати эканлиги билан ажralиб туради)

Оғиздан-оғизга, авлоддан-авлодга, даврдан-даврга ўтиб, халқнинг истеъододли вакиллари ижросида сайқал топади. Фольклор асарлари дастлаб қандай яратилган

⁹ (Қаранг: Аристотель. Сочинения в четырех томах. - Москва : Мысль, 1983. С.465- 466.).

¹⁰ (Ўша асар С.465).

¹¹ (Қаранг: Зберовский А.В. Сократ и афинская демократия (социально- философское исследование). - Краснодар: КГАУ, 2007).